

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/1

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 12/1 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в.б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамрокулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемурастов Махмут Ажимурастович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган. Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР)	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ	30-35
<i>Berdikulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'alov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA)	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР	69-74
<i>Qurbonova Manzila Boqiyevna</i> BUKHORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAКATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida)	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i> O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'gli</i> GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	96-101
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON-TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA)	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i> АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI	118-124
<i>To'xtamishева Fotima Musurmonovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i> SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i> QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXELOGIK YODGORLIKLARINING O'RGANILISH TARIXIDAN	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i> O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i> VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i> SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI	156-161
<i>Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна</i> ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ	162-172

07.00.00- Тарих фанлари

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,

**O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING
RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Neft va gaz, oltingugurt insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lib, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligidagi iste'mol qilish o'rni hamda ularga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib borgan. Ushbu maqolada O'zbekiston janubiy viloyatlari Qashqadaryo viloyatida gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, sanoat, fabrika, gaz-oltingugurt, zavod, islohot, jamiyat, ish haqi, hunar maktablari, ayollar maktablari.

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
PhD, University of Economics and pedagogy

**THE HISTORY OF THE OCCURRENCE OF THE GAS-SULFUR INDUSTRY IN UZBEKISTAN
AND ITS DEVELOPMENT (ON THE EXAMPLE OF THE KASHKADARYA REGION)**

Abstract. Oil and gas, sulfur have been known to mankind for a very long time, and the place of consumption of products derived from them in the national economy, as well as the need for them, has increased every year. This article analyzes the history of the occurrence and development of the gas-sulfur industry in the Kashkadarya region of the southern regions of Uzbekistan on a scientific basis.

Key words: Uzbekistan SSR, industry, factory, gas-sulfur, factory, reform, society, wages, art schools, women's schools.

Маматкулов Бекзод Шерозович, PhD,
Экономико-педагогический университет

**ВОЗНИКНОВЕНИЕ ГАЗОСЕРНИСТОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ И
ИСТОРИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Аннотация. Нефть и газ, сера известны человечеству с глубокой древности, роль продуктов из них в народном хозяйстве, а также потребность в них возрастали с каждым годом. В данной статье на научной основе проанализирована история возникновения и развития газосернистой промышленности в Кашкадарьинской области южных областей Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекская ССР, промышленность, фабрика, газосерная, фабрика, реформа, общество, заработная плата, художественные училища, женские школы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N24>

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo'lgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliy o'quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim". Bugungi kunda kimyo sanoatining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati nihoyatda oshib bormoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston og'ir sanoat bazasida vujudga kelgan kimyo industriyasi jadal taraqqiy etib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada O'zbekistonda gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida) ni yoritib berishda analiz va sintez, tizimlilik, mantiqiylik, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

Tahliliy materiallar va natijalar. O'zbekistonda qadim zamonlardayoq neftdan foydalanib kelingan. Neftning o'ziga xos o'tkir hidi tufayli qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda undan foydalanilgan. Neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazgan. Xorazm geografigi Bakrom (XIII asrda) Bakudagi neftni haydash texnologiyasi haqida birinchi bo'lib eslatib o'tagan. Shuning uchun ham neft va uni qayta ishlash O'zbekistonda eng qadimiy tarmoqlardan biridir.

O'zbekistonda neft qazib chiqarish 1876 yildan boshlangan deyilishiga asosiy manba Farg'onaning Qamishboshi qishlog'ida rus tadbirkori D.P. Petrov tomonidan XIX asrning 80-yillari boshida 25 metr gacha burg'ilangan 2 ta quduqning har biridan kuniga 10 pud (160 kg) gacha neft qazib olganligidir.

1880-1883 yillar davrida bu quduqlar soni 4 taga yetgan. Quduqlar zarbali usul bilan qazilgan. Ba'zi ma'lumotlarga muvofiq bunday quduqlardan kuniga 5-10 tonnagacha neft olingan. Rus tadbirkori D.P. Petrov 1885 yilda SHO'rsuvda ikkita quduq qazdirgan va ulardan kuniga 400-500 [kg neft olingan](#), undan maxsus qozonda kerosin va qoramoy ajratib olinib boshlangan. Aynan, shuning uchun ham manbalarda O'zbekistonda neft sanoatining boshlanishi 1885 yildan deb ko'rsatilgan.

O'zbekistonda dastlabki neft koni 1904 yilda ochilgan, u Farg'ona vodiysidagi Chimyon neft konida 278 m chuqurlikdan (avvalgi Vankovsk) qazib olingan. Undan kuniga qariyb 130 tonna neft otilib chiqqan. O'sha yili Oltiariq temir yo'li stansiyasi yaqinida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan. O'zbekistonda neft sanoatining paydo bo'lishi shu sanadan boshlanadi degan fikrlar ham mavjud. Qayta ishlangan neftdan asosan kerosin olingan. Kerosin va qoldiq

qoramoy aravalarga va tuyalarga yuklanib, O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xitoy bozorlarida, Toshkent, Andijon, Qo'qon paxtani qayta ishlash zavodlariga, moyjo'vozlarga va aholiga sotilgan.

Birinchi gaz fontani 1953 yilda "Setalantepa" konida olingan bo'lsa, 1956 yilda esa "Jarqoq", "Qorovulbozor", "Saritosh" gaz va gaz-neft konlari, jumladan, Buxoro-Xiva neft gazga boy hududlarning ulkan istiqbollarini tasdiqlagan "Gazli" yirik koni ochilgan.

1960 yilgacha mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha gaz quvurlari qurildi. Bu esa Farg'ona vodiysi shaharlarini gaz bilan ta'minlash imkonini berdi.

1958-1970 yillar davrida 70 dan ortiq neft'-gaz konlari aniqlangan bo'lib, ular orasida "Gazli", "Uchqur", "Muborak", "O'rtabuloq" va boshqalar ayniqsa yirikdir.

"Gazli" ortidan o'zbekistonlik geologlar 1960 yil boshida "Muborak" ulkan gaz konini, 1974 yilda esa "Sho'rtan" gaz kondensat konini topganlar.

Shu tariqa, yoqilg'i sanoati XX asr o'rtalarida O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biriga aylandi.

"Kimyo sanoatiga juda katta mablag' berdik. Energiya samaradorligi jihatidan texnologiyalar yangilandi. Endi bu tarmoq qo'shilgan qiymat beradigan vaqt keldi. Juda katta imkoniyatlar bor. Agar har bir yo'nalish bo'yicha miqdorini, sifatini, narxini joy-joyiga qo'ysak, eksport 5—6 barobar oshadi", — dedi Shavkat Mirziyoyev [1, 134].

O'zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Neft va gaz industriyasining rivojlanishi tufayli kimyo sanoatida yangi tarmoqlar vujudga keldi. Neft qazib olishning kustar usullaridan mexanizatsiyalashgan va kompleks elektron raqamlashgan jarayongacha bo'lgan taraqqiyot yo'li bosib o'tildi. Kimyo sanoati sohasi tarixini tadqiq etish jarayonida, uning rivojlanish bosqichlari ayrim nazariyalar, qarashlar kurashidan iborat bo'lganligini ko'ramiz.

Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalar, arxitektura yodgorliklari insoniyatning uzoq davrlardan buyon neft va gaz bilan tanish ekanligidan dalolat beradi. Arxeologlarning fikricha, O'zbekistonda kimyo sanoati manbalaridan foydalanish taxminan 8 ming yil avval boshlangan. 1950 yillar oxiri va 1960 yillar boshlarida O'zbekistonning janubiy viloyatlarida kimyo sanoatining rivojlanish jarayonlarining jadallashishi, bu yerlarda gaz va neft konlarining ko'pligi kimyo sanoatining rivojlanishi, soha tarmoqlariga ixtisoslashtirilgan mustaqil korxonalarni tashkil etishni taqozo etdi [2, 4].

1970 yillarda geolog olimlar O'zbekistonning janubiy viloyatlari, xususan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan tarkibida 6% gacha oltingugurt bo'lgan gaz konlarini topdilar. Oltingugurt sanoat, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda keng qo'llaniladigan muhim element. Qadim zamonlardan beri sirli modda sifatida qabul qilingan oltingugurt, chang va suyuqlik sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan olovli va portlovchi metallidir. Inson salomatligi uchun juda ko'p foydali bo'lgan oltingugurt, shuningdek, sanoatda ishlatiladigan muhim kislotalardan biri bo'lgan [sulfat kislotasining](#) xom ashyosi hisoblanadi.

Oltingugurt yonilg'i metallarni yemirib tezda ishdan chiqaradi, kishilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarkibida oltingugurt mavjud bo'lgan gaz konlarining Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko'plab topilishi, gaz tarkibidagi oltingugurt ajratib oladigan va gazdan sintetik tola ishlab chiqaradigan zavod qurilishi ehtiyojini yuzaga keltiradi. 1960 yillarning oxiri va 1970 yillarning boshlarida Qashqadaryoda aynan Muborak tumanida gaz tarkibidagi oltingugurt ajratib oladigan va gazdan sintetik tola ishlab chiqaradigan,

shuningdek hali SSSR tarkibidagi davlatlarda mavjud bo'lmagan yagona va yirik zavod qurilishiga ehtiyoj yuzaga keldi[3, 219]. Mamlakatimizda ilgari bunday zavod va korxonalar qurilmaganligi sabab bir necha yirik ilmiy-tadqiqot institutlari loyihalash tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab chiqdilar. Asosan, Saratov shahridagi "Vostokgiprogaz" va Moskvadagi "Giprogazochistka" institutlari olimlari va injener-texnik xodimlarining jonbozligi tufayli zavod loyihasi tayyor qilindi[1, 47]. Mazkur zavod qurilishiga 88 million so'mdan ortiq kapital mablag' sarflanishi rejalashtirildi, mazkur xarajatlar 2,5-3 yil ichida to'la qoplanishi mo'ljallandi.

1968 yilning mart oyida gaz-oltingugurt zavodi qurilishi boshlab yuborildi. 1969-1970 yillarda ham zavod qurilishi jadal davom etdi. Zavod qurilishida Yugoslaviya, Ruminiya, GDR va Chexoslovakiyadan murakkab asbob-uskunalar kelib turdi. Zavod qurilishida tajribali injener A.Shevkin rahbarlik qildi[4, 302].

Muhokama. Oltingugurt zavodining qurilishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, birinchidan, oltingugurtdan tozalangan gazni sanoat markazlariga jo'natish uchun zarur bo'lgan quvurlar yotqizildi, Yakkabog'dan Muborakkacha 158 kilometr masofada katta quvurlar yotqizildi va suv muammosi hal etildi, ikkinchidan, tarkibida oltingugurt bo'lgan gazni zavodga keltirish injener-texnik xodimlarni o'ylatgan muammolardan biri edi, chunki bunday gazni oddiy quvurlarda keltirib bo'lmaydi, tarkibida oltingugurt bo'lgan gaz oddiy metall quvurlarni 3-4 yil ichida butunlay yemirib tashlashi aniq. Bu muammoni hal etish uchun Ukrainaning Donesk viloyatidagi Xarsiz quvur zavodi Muborak gaz-oltingugurt zavodi uchun ichki qismi maxsus smola bilan sirlangan quvurlar ishlab chiqarib, Muborakka gaz konlari va zavod oralig'idagi trassalarga yotqizildi.

1971 yilning oxirida Qashqadaryo viloyatida gigant gaz-oltingugurt zavodining birinchi navbati qurib bitkazildi. Dunyoda bunday korxona shu paytga qadar faqat Fransiya va Kanadadagina mavjud edi. Umumiy maydoni 68 gektar bo'lgan bu gigant korxona 220 ming tonna oltingugurt yetkazib beradigan yirik zavodga aylandi.

1978 yilga kelib Muborak gaz-oltingugurt zavodining ikkinchi navbati qurilishi tezkorlik bilan olib borildi. Og'irligi 240 tonnalik kolonna o'rnatildi [5, 271].

1979 yilda Muborak gaz-oltingugurt zavodining uch blokdan iborat ikkinchi navbati mahsulot bera boshladi. Zavod mamlakatning magistral gaz quvurlariga yiliga 10 milliard kubometr tozalangan gaz berish quvvatiga ega bo'ldi.

Oltingugurt zavodining uchinchi navbati qurilishi ham jadal boshlab yuborildi. 1980 yilda zavodda mehnat qilayotgan 870 kishi jamiyatning barcha sohalarida faol edi[6, 102].

Biroq, topilgan bu boyliklarni ishlatishda muammolar har doimgidek chiqib turdi. Masalan, birgina "Qarshineft" boshqarmasida o'rnatilmagan uskunalar 1976-yilda 47338 tani, 1977-yilda 96355 tani tashkil etgan. Ayni paytda, sovet davlatining yer osti boyliklaridan unumli foydalanish siyosati, oxiriga yetib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqardi. 1982 yildan boshlab Sho'rtan gazenergokimyo kompleksini qurish uchun turli qaror va loyihalar qabul qilinishiga qaramay, belgilangan vazifalar to'liq amalga oshirilmadi, gaz konlari ochilib, mamlakat manfaatlariga xizmat qilsa-da, ekologiyaga ta'sir qilmay qolmadi. Masalan, Muborak gazni qayta ishlash zavodi har yili 136 ming tonnadan ziyod zaharli gazlarni chiqarilishi yoki yoqib yuborilishi oqibatida viloyatning qo'shni Ulyanov, Usmon Yusupov va Bahoriston tumanlaridagi aholi jabr ko'rgan. Bu yerlarda mevali daraxtlarni qurishiga, uzumlarni pishar-pishmas qurib qolishiga olib kelgan bo'lsa, zavoddan chiqarilgan oqava suvlar atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazib kelgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shu tariqa O'rta Osiyoda ilk bor mamlakatning gazdan oltingugurt ajratib oladigan yangi bir tarmog'i vujudga keldi. Bu mamlakatning oltingugurtli gaz konlarining kimyo sanoati uchun kerakli xom ashyoni uzluksiz ta'minlanishi uchun asos bo'ldi. Bu zavodning qurilishi janubiy viloyatlarning oltingugurt sanoat sohasidagi tarixiy tajribasi va natijalarning O'zbekiston kimyo sanoati tarmoqlarining rivojlanish istiqbollaridagi o'rnini belgilab berishda muhim poydevor bo'ldi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – B. 134.
2. Yoqubov G'ulom. Sanoatimizdagi o'pirilishlarga qarshi kurashamiz! // Qizil O'zbekiston. - 1930.- 21-fevral;
3. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; 219 bet
4. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 302 bet
5. 5. Tursunov S. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – T., 2004. – 271 bet.
6. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996;. 106 стр.
7. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.